1.4-MASHG‘ULOT. FIZIKA VA TEXNOLOGIYA

MAQSAD: o‘quvchilarga fan va texnologiyalarning foydali va zararli tomonlarini ko‘rsatish hamda ulardan g‘arazli maqsadlarda foydalanish mumkin emasligini anglatish.

KERAKLI JIHOZLAR: darslik, fizika fani bilan bog‘liq texnologiyalar aks etgan rasmlar va videolavhalar.

KO‘NIKMA VA KOMPETENSIYALAR: fan va texnologiyalarning foydali va zararli tomonlarini hamda cheklovlarini tushunib bayon eta olish; fan va texnologiyalardan g‘arazli maqsadlarda foydalanish mumkin emasligini bilish va unga rioya qilish; turli xil xavflarni ifodalovchi belgilarni taniy olish.

1 Elektr energiyasi ishlab chiqaradigan elektr stansiyalarining foydali va zararli tomonlarini jadvalga yozing. Bunda darslik, qo‘shimcha adabiyotlar va internet materiallaridan foydalaning.

T/r	Elektr stansiyasi turi	Foydali tomonlari va afzalliklari	Zararli tomonlari va kamchiliklari
1	Gidroelektr stansiyasi		
2	Issiqlik elektr stansiyasi		
3	Shamol elektr stansiyasi		
4	Atom elektr stansiyasi		
5	Quyosh elektr stansiyasi		

2 Siz qaysi ijtimoiy tarmoqlarga a’zosiz? Ulardan qanday foydali ma’lumotlarni olib turasiz? Zararli ma’lumotlar ham uchrab turadimi? Ularga munosabatingiz qanday?
Javoblaringizni yozing va sinfda muhokama qiling.

O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH

1 1-bobni qanchalik o‘zlashtirganingizni aniqlash uchun jadvaldagi mos kataklarga tasdiq belgisi (✓)ni qo‘ying.

Men o‘rgandim	Ha	Ishonchim komil emas	Yo‘q	Darslikdagi mavzular
Fizik hodisalarning turlari				1.1
Fizikani o‘rganishdagi muhim tamoyillar va ko‘nikmalar				1.2 va 1.3
Turli laboratoriya jihozlarining vazifalari va ulardan foydalanish usullari				1.4
Turli xil xavflarni ifodalovchi belgilarni tanib olish				1.5
Laboratoriya xonasida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish				1.5
Fan va texnologiyadan foydalanishning foydali va zararli tomonlari				1.6

2 Darslikdagi yaxshi o‘zlashtira olmagan mavzularingizni yanada puxta egallashingiz uchun qanday usullarni qo‘llashingiz haqida yozing.

1-BOBNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

A. Test savollari.

To‘g‘ri javobni (A, B, D yoki E) tanlang va uni qavs ichiga yozing.

1 Quyidagilardan qaysi biri fizik hodisa hisoblanadi?

A) massa
B) metr
D) qaynash
E) vertolyot ( )

2 O‘lchov asbobini toping.

A) gantel
B) shtanga
D) tarozi
E) qop ( )

3 Quyidagilardan qaysi biri fizik jism?


A) vaqt
B) minut
D) qotish
E) avtomobil ( )

4 Menzurka yordamida nimani o‘lchash mumkin?

A) suyuqlik massasini
B) suyuqlik hajmini
D) suyuqlik massasi va hajmini
E) suyuqlik zichligini ( )

5 Rasmda tarozi toshlari keltirilgan. Bu toshlar yordamida maksimal ravishda qanday massali jismni o‘lchash mumkin?

A) 50 g 900 mg
B) 50 kg 900 g
D) 5 kg 900 g
E) 500 g 900 mg ( )



▲ **1.3-rasm.** Tarozi toshlari.

B. Savollarga mustaqil tarzda qisqa javob bering.

To‘g‘ri javoblarni pastdagi bo‘sh joylarga yozing.

1 Quyidagilardan qaysilari issiqlik hodisalari hisoblanadi?

a) Ali velosipedda sayr qilib yuribdi.
b) Xonada chiroq yonib turibdi.
d) Bugun havo harorati 28 °C.
e) Qozonda sho‘rva qaynamoqda.
f) O‘rmonda yong‘in chiqdi.
g) Momaqaldiroq gumburlab, chaqmoq chaqdi.

2 Dinamometr bilan qanday fizik kattaliklarni o‘lchash mumkin?

a) Jism massasini
b) Jismga ta’sir qiluvchi og‘irlik kuchini
d) Jism og‘irligini
e) Jism zichligini
f) Jism tezligini

3 Suv suyuq holatdan muz holatga o‘tganida uning qaysi parametrlari o‘zgarishsiz qoladi?

a) Massasi
b) Hajmi
d) Tarkibi
e) Harorati
f) Molekulalararo masofasi

4 Mobil telefondan foydalanishning uchta foydali va zararli jihatlarini yozing.

Foydali jihatlari:

Zararli jihatlari:

5 Nima sababdan tadqiqotchi skeptik (shubhalanuvchi) bo‘lishi kerak? Bunday xususiyatga ega bo‘lishning qanday foydali va zararli tomonlari bor? Javobingizni asoslab yozing. Mulohazalaringizni sinfda muhokama qiling.